


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**



**O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI**

**FAN DASTURI**

(Barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun)

TOSHKENT - 2021

<b>7.</b>	Fan dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan. O'zMU kengashining 2021__ yil "___" dagi _____ - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
<b>8.</b>	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>                  Qurbonova M. - O'zMU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.                  Fattoxova D.A. - O'zMU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini dotsent v.b., pedagogika fanlari nomzodi.                  Inogamova N.Sh. - O'zMU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini katta o'qituvchisi.</p>
<b>9.</b>	<p><b>Taqrizchilar:</b>                  Xolmonova Z.T. - TDO-TAU professori, filologiya fanlari doktori.                  Kudraxadjayeva N.A. - TDTU, "Tillar (o'zbek va rus)" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MBIAF	2021/2022	7	3
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek/rus	2	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. O'zbek tilining sohada qo'llanishi	30	60	90
2. I. Fanning mazmuni	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarining o'zbek tilida soha bo'yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og'zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo'llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarining rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ulami amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish. Talabalarining o'zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish.</p> <p>Fanning vazifasi – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishni ta'minlash; egallanayotgan soha bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqi me'yor va qoidalarida mukammal o'zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlashdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)</b></p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p><b>1-mavzu.</b> "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. Tilning boshqa fanlar bilan aloqasi. Til va tafakkur. Til va ma'naviyat. Davlat tili tushunchasi. O'zbek tili va davlat qonunlari.</p> <p><b>2-mavzu.</b> Til va yozuv masalalari. Yozuv haqida umumiy tushuncha. O'zbek yozuvlari tarixi. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. Grafika. Imlo va savodxonlik masalalari.</p> <p><b>3-mavzu.</b> O'zbek tilining leksik qatlamlari. So'z – leksikologiyaning o'rganish obyekti sifatida. So'zlardagi bir ma'holilik va ko'p ma'holilik.</p>		

Ijtimoiy leksika. Sohaviy leksika.

**4-mavzu.** Til va terminologiya. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari. Tilning lug'at tarkibi. O'zbek leksikografiyasi. Umumiy va maxsus lug'atlar. Sohaviy lug'atlarda terminlar. Tezaurus haqida ma'lumot.

**5-mavzu.** Matn va uning turlari. Mikro matn va makro matn. Ilmiy va ilmiy-ommabor matnlar. Ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar.

**6-mavzu.** Adabiy nutq va uning uslublari. Ilmiy uslub, badiiy uslub, so'zlashuv uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslublar va ularning uslubiy xususiyatlari.

**7-mavzu.** Rasmiy – idoraviy uslub va uning uslubiy xususiyatlari. Hujjatlilik va adabiy til me'yorlari. Hujjat va uning turlari. Hujjatlarining zaruriy qismlari. Sohaga oid hujjatlar va ularning rasmiylashtirilishi.

**8-mavzu.** Nutq va adabiy me'yor. Nutq va mutaxassislik. Kasbiy nutq. Nutq bayon qilish usullari. Mutaxassis nutqning ilmiyligi, to'g'riligi, aniqligi, mantiqligi, sofligi. Nutqiy kompetentlik.

**9-mavzu.** Sohada o'zbek tilida muloqot va kommunikatsiya jarayoni. Yozma va og'zaki muloqot hamda uning xususiyatlari. Verbal va nonverbal muloqot.

**10-mavzu.** Soha bo'yicha belgilangan mavzu asosida ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari. Maqola, tezis, taqriz, annotatsiya, rezyume matni talablari.

Dastlabki ilmiy tadqiqot yozish. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, adabiyotlar, perefraza (havola, iqtibos, sitata, abzas).

**11-mavzu.** O'zbek adabiyotining qadimgi manbalari. M.Koshg'ariy – ilk lug'at asoschisi. Ma'rifiy adabiyot. O'zbek mutafakkirlarining til haqidagi qarashlari.

**12-mavzu.** Alisher Navoiy ijodi turk xalqlari adabiyotining yuksak cho'qqisi. Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari. "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari.

**13-mavzu.** XVI-XX asrlar adabiyotining til xususiyatlari. Hozirgi o'zbek tilining rivojlanishi.

**14-mavzu.** XX asr o'zbek adabiyoti xususiyatlari. G'afur G'ulom, Oybek va Abdulla Qahhor asarlari. Mustaqillik arafasidagi yangilanishlar. O.Yoqubov, P.Qodirov, O.Hoshimov asarlari. E.Vohidov, A.Oripov va Rauf Parfi she'riyati. Zamonaviy o'zbek adabiyotining istiqbollari.

**15-mavzu.** Tilshunoslikning zamonaviy sohalar: Kompyuter lingvistikasi. Lingvomadaniyatshunoslik. Lingvodidaktika. Lingvistik

ekspertiza.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

#### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunlari hamda o'zbek tilini Davlat tili sifatida o'qitish masalalari bo'yicha ma'lumot to'plash..
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarning amalda bajarilishi bo'yicha tilshunos va adabiyotshunos olimlarning fikr va mulohazalari bayon etilgan maqolalari bilan tanishish.
3. O'zbek tilining imlo qoidalari va soha egalarining savodxonligi. "Til bilgan el biladi" mavzusida ijodiy matn yaratish.
4. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Sohaga xos o'z va o'zlashgan so'zlar tasnifi.
5. O'zbek leksikografiyasi. Bir tili va ikki tili lug'atlar bilan tanishish. O'zbek tilining izohli lug'atida berilgan sohaga oid so'zlar izohi bilan tanishish.
6. Sohaga oid yangi terminlar bo'yicha nostandart testlar tuzish. Sohaning dolzarb masalalariga ' bag'ishlangan ilmiy maqola ustida ishlash. Maqoladagi sohaga oid atamalar va kalit so'zlar tahlili.
7. Soha olimlarining ilmiy asarlari bilan tanishish, shu asar asosida reproduktiv testlar tuzish.
8. Badiiy nutq uslubi. O'zbek she'riyati. "Bir she'r tarixi" mavzusida esse yozish. Badiiy asar tahlili (ixtiyoriy). O'qilgan badiiy asarni "Idrok xaritasi" innovatsion texnologiyasi asosida tahlil qilish.
9. So'zlashuv nutq uslubi. Nuqiy kompetentlikka rioya qilish. Sohaga oid ilmiy mavzuning og'zaki taqdimoti. Publitsistik nutq uslubi. Publitsistik

maqolalar bilan tanishish va tahlil qilish. "Men tanlagan soha va OAV" mavzusida esse yozish.

10. "Milliy madaniy markazlar" mavzusida video reportaj tayyorlash. Sohaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari bilan tanishish.
11. Sohaga oid ilmiy maqolalardan biriga taqriz yozish. Sohaga oid ixtiyoriy ilmiy mavzuda tezis tayyorlash.
12. Sohaga oid ixtiyoriy ilmiy maqolaga rezyume tayyorlash. Sohaga oid ixtiyoriy ilmiy asarga annotatsiya tayyorlash.
13. "Soha fidoyilari" mavzusida rasmi ko'rgazmali vosita tayyorlash va taqdim qilish. "Mutaxassis va davlat tili" mavzusini "Nima uchun?" grafik organayzeri asosida ochib berish.
14. "Mutaxassislik tarixidan" mavzusini Klaster usulida yoritib berish. Sohaga oid hujjatlar bilan tanishish.
15. Kasbga oid hujjat namunalari bilan ishlash. (rezyume, ariza, tavsifnoma, ma'lumotnoma, bildirish, hisobot, xizmat yozishmalari, bayonnoma).
16. Mavzuga oid tadqiqot va uni olib borish jarayonlari. Sohaning innovatsion yangiliklari haqida taqdimot tayyorlash.
17. Dastlabki ilmiy tadqiqot yozishda til imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish.
18. Ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish, ma'lumotlar to'plash.
19. Bibliografiyani shakllantirish mezonlari bilan tanishish.
20. Ilmiy tadqiqotning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish va himoyaga tayyorlash. Himoya nutqi.
21. O'zbek adabiyotining qadimgi manbalari. Badiiy adabiyot namumalarini o'qish.
22. Rabg'uziy, Sayfi Saroyi asarlari tahlili.
23. Alisher Navoiy ijodi turk xalqlari adabiyotining yuksak cho'qqisi. Navoiy ijodini Fuzuliy, Maxtumquli, Abay va Berdax asarlari bilan qiyoslab o'rganish.
24. Alisher Navoiy lirikasi namunalardan yod olish va tahlil qilish.
25. Alisher Navoiy "Xamsa" sig'a kirgan dostonlarni o'qib, mazmunini tahlil

<p>qilish.</p> <p>26. XVI-XIX asrlar adabiyotining xususiyatlari. “Boburmoma”ni o‘qib, mazmunini gapirib berish.</p> <p>27. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘qib o‘zlashtirish.</p> <p>28. Cho‘lpon she‘rlaridan yod olish.</p> <p>29. XX asr o‘zbek adabiyoti xususiyatlari. G‘ofur G‘ulom, Oybek va A.Qahhor asarlarini o‘qib tushunish.</p> <p>30. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyandalari asarlarini bilish.</p>	<p><b>3. V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b> Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbek tili imkoniyatlaridan amalda to‘g‘ri foydalanish kompetentsiyasiga, o‘zbek tilini sohada qo‘llash bo‘yicha tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;</li> <li>• O‘zbek tilida sohaga oid oid atamalarini tushunish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo‘llay olish jarayonlarining xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;</li> <li>• Sohaga oid matnlar bilan o‘zbek tilida tanishish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, tizimli tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
<p><b>4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• amaliy topshiriqlar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• mantiqiy fiklashga qaratilgan grafik organayzerlar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimot qilish;</li> <li>• individual loyihalalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>	<p><b>5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazoratning barcha shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, fanni o‘zlashtirish.</p>

<p><b>6. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <p>1. Abdurahmonova M., Fattoxova D., Xalimxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.</p> <p>2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.–456 b.</p> <p>3. Rahmonov N., Boltaboyev H. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalar. 1-2 jild. T., 2013, 2015.</p> <p>4. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-2 jild. T., 2015, 2019.</p> <p><b>Qo‘shimcha adabiyotlar:</b></p> <p>5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrda “O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZI VA MAVQEINI TUBDAN OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi PQ-5850 – son qarori.</p> <p>6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI ATAMALAR KOMISSIYASINING FAOLIYATINI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”gi PQ-40 son qarori</p> <p>7. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. “O‘zbek tili”: T. TATU, “Aloqachi”, 2019.</p> <p>8. Jiyanova N., Mo‘minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2016. I-kitob</p> <p>9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005–2008.</p> <p>10. Sohaviy lug‘atlar.</p> <p><b>Axborot manbalari :</b></p> <p>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>2. http://solver.uz/translate.php - Russko-uzbekskiy perevodchik.</p> <p>3. http://sahifa.tj/uzbeksko-russkij.aspx -Uzbeksko-russkiy perevodchik.</p> <p>4. http://library.ziyounet.uz/ - ta’lim portali</p>
---